


## Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil yanvar)

2019 yilning yanvar oyida Farg'ona viloyatida 1252 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 866 taga ko'pdir.










Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4392 ta (16,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 30730 tani tashkil etgan.



*Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'j	1573	1553	24
 Sanoat	6518	6472	231
 Qurilish	2533	2504	71
 Savdo	7052	6948	733
 Tashish va saqlash	1228	1215	40
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1447	1437	87
 Axborot va aloqa	1000	986	6
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	711	698	3
 Boshqa turlari	8668	8494	57



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**

2019 yilning 1 fevral holatiga 30730 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,2 % sanoatda, 8,2 % qurilishda, 22,9 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5646 ta), Qo'qon shahri (4243 ta), Marg'ilon shahri (3034 ta) va Uchko'priq tumani (1617 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (736 ta), Furqat tumani (737 ta) hamda Yozyovon tumani (684 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, *mingda*.






## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **30307** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4397 ta (16,9 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,9 % savdo, 21,4 % sanoat, 8,3 % qurilish, 5,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 3,3 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5542 ta), Qo'qon shahri (4189 ta), Marg'ilon shahri (3021 ta), Uchko'prik tumani (1547 ta) va Dang'ara tumani (1426 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (736 ta), Furqat tumani (729 ta) hamda Yozyovon (682 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**

01.02.2017 y.

• 23,6 ming

01.02.2018 y.

• 24,8 ming

01.02.2019 y.


• 30,3 ming



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2019 yil 1 fevral holatiga 1252 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3.2 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (185 ta), Qo'qon (171 ta), Marg'ilon (130 ta) shaharlarida, Oltiariq (59 ta), Uchko'prik (68 ta) va O'zbekiston (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (16 ta) hamda Yozyovon (26 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (231 ta), savdoda (733 ta), qurilishda (71 ta), tashish va saqlashda (40 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (87 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (24 ta), axborot va aloqada (6 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta) tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>369</b>	<b>100</b>	<b>386</b>	<b>100</b>	<b>1252</b>	<b>100</b>
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	14	3,8	23	6,0	24	1,9
Sanoat	142	38,5	127	32,9	231	18,5
Qurilish	32	8,7	48	12,4	71	5,7
Savdo	73	19,8	79	20,5	733	58,5
Tashish va saqlash	27	7,3	20	5,2	40	3,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	27	7,3	20	5,2	87	6,9
Axborot va aloqa	13	3,5	8	2,1	6	0,5
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	2,2	8	2,1	3	0,2
Boshqa turlari	33	8,9	53	13,7	57	4,6

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni**








## TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 fevral holatiga 24894 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar–8946 ta, oilaviy korxonalar – 2936 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 12130 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 53 tani va boshqalar 829 tani tashkil etadi.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 297 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 92 taga yoki 44,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 213 tasi qo'shma korxonalar, 84 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalaridan 213 tasi qo'shma korxonalar, 84 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 105 ta (35,4 %), Qo'qon 45 ta (15,2 %), Marg'ilon 21 ta (7,1%), Quvasoy 17 ta (5,7 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 16 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,7 %), Furqat tumani 3 ta (1,0 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,0 %), Bag'dod tumani 6 ta (2,0 %), Buvayda tumani 4 ta (1,3 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 191 ta (64,3 %), savdoda 41 ta (13,8 %), boshqa turlarida esa 15 ta (5,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 4 ta (1,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 11 ta (3,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatishda 7 ta (2,4 %), qurilishda 8 ta (2,7 %), tashish va saqlashda 7 ta (2,4 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 13 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga ko'paygan yoki 3.2 martaga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, J.Koreya Respublikasi - 3 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston- 1 ta, Ozarbayjon -1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2019 yil yanvarda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 6 ta, savdoda 1 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi</b>			2	15,4
<b>Sanoat</b>	2	50,0	6	46,2
<b>Qurilish</b>	1	25,0	1	7,7
<b>Savdo</b>	1	25,0	1	7,7
<b>Tashish va saqlash</b>			1	7,7
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>			1	7,7
<b>Axborot va aloqa</b>				
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>				
<b>Boshqa turlari</b>			1	7,7




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.**

2019 yil 1 fevral holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 18,7 % ga oshgan. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4612 tasi (18,6%) Farg'ona, 3659 tasi (14,8 %) Qo'qon, 2687 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1361 tasi (5,5 %) Uchko'priq va 1199 tasi (4,8 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 24741 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7023 tasi (28,4%) – savdoda, 6473 tasi (26,2%) - sanoatda, 2517 tasi (10,2 %) - qurilishda, 1527 tasi (6,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1438 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1214 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 998 tasi (4,0 %) - axborot va aloqa sohasida, 521 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3030 tasi (12,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




2019 yil yanvar oyida 1234 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,3 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (179 ta), Qo'qon (171 ta), Marg'ilon (130 ta) shaharlarida, Oltiariq (59 ta) va Buvayda (51 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (16 ta), Beshariq (40 ta) hamda Qo'shtepa (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (733 ta), sanoatda (231 ta), boshqa turdagi xizmatlar (41 ta), qurilishda (70 ta), tashish va saqlashda (40 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (23 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (87 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (6 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta) tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 2936 tani tashkil etib, ulardan 2909 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 30,1 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 47,2 % yoki 1386 tasi sanoat, 13,8 % yoki 404 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,6 % yoki 458 tasi savdo, 9,1 % yoki 267 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 67 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 30 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 35 tasi qurilish, 0,9 % yoki 25 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 264 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

#### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oyida jami 49 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -2 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida viloyatda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida viloyatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2018 yil yanvar oyida 51 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar oyida esa ko'rsatkich 49 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2 taga tugatish kamaygan.*

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 49 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 13 tasi (26,5 %) savdo, 13 tasi (26,5 %) sanoat, 2 tasi (4,1 %) qurilish, 3 tasi (6,1 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 tasi (6,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (4,1 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (2,0 %) axborot va aloqada, hamda 12 tasi (24,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	51	100,0	49	100,0	-2
shu jumladan:					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	9,8	3	6,1	-2
sanoat	9	17,6	13	26,5	4
qurilish	5	9,8	2	4,1	-3
savdo	12	23,5	13	26,5	1
tashish va saqlash	4	7,8	2	4,1	-2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	9,8	3	6,1	-2
axborot va aloqa	5	9,8	1	2,0	-4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish					
boshqa turlari	6	11,8	12	24,5	6

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha DINAMIKASI



2019 yil yanvar oyida 36 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 10 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 13 tasi (36,1%) savdo, 12 tasi (33,3 %) sanoat, 1 tasi (2,8 %) qurilishda, 3 tasi (8,3 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 3 tasi (8,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (5,6 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (2,8 %) axborot va aloqada, hamda 1 tasi (2,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Qo'qon shahrida -11 ta, Marg'ilon shahrida -4 ta, Buvayda tumanida -4 ta hamda Dang'ara tumanida -23 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Viloyat statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish**  
**bo'limi Tel.:73-241-72-33**